

**Mavlono Orif Deggaroniy  
(Karmana tumani)**



## **Raboti Malik va Sardoba karvonsaroyi (Karmana tumani)**

Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba **XI asrning 70-yillarida** Qoraxoniylardan bo'lmish **Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim (1068–1080-y.)** tomonidan qurilgan bo'lib, **XII asrning birinchi choragida** yana shu Qoraxoniylardan bo'lmish **Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102–1130-y.)** tomonidan ta'mirlangan. Raboti Malik karvonsaroyi **100×100 m** maydonni egallagan bo'lib, mustahkam devorlar bilan o'ralgan va ikki qismga bo'lingan. Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi e'tibori bilan **XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan.** unda Amir Temur va uning avlodlari, buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyohlar qo'nib o'tgan. Hofizi Abro'ning ma'lumotiga ko'ra, Ulug'bek 1420-yilda ushbu mintaqalarda to'xtab, qirq kun ov qilgan.

Sardoba fors-tojikcha **“sard”**-sovuq, **“ob”**-suv so'zlaridan olingan bo'lib, sovuq suv degan ma'noni anglatadi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Movarounnahr hududida **44 ta sardoba** bo'lgan ulardan 29 tasi Qarshi cho'llarida, 3 tasi Mirzacho'lda, 3 tasi Farg'ona va Toshkent oralig'ida va eng muhimi Qizilqum koridorida ya'ni Rabotimalik Sardobasida. Sardoba devori silindr shaklida bo'lib **devor qalinligi 1,5 metr, diametri 12 metr, balandligi (suv ostidan gumbazgacha) 18 metr.** U juda sifatli gilli pishiq g'ishtdan qurilgan. Sardobaning silindrik qismi tugab, gumbaz boshlanishi bilan to'rt tomondan eni 1,1 metr, balandligi 1,5 metr bo'lgan, ustki qismi yoysimon tuyniklar qo'yilgan. Mahalliy aholining aytishicha XX asrning 20-yillarida Sardoba yonida qishloq bo'lgan bugungi kunda bu qishloq yo'qolib ketgan.

**Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba  
(Karmana tumani)**



## **Chashma majmuasi (Nurota tumani)**

**Chashma majmuasi**-yuzlab dindorlar ziyorat qiladigan Markaziy Osiyo hududida muhim o‘ringa ega bo‘lgan islom markazlaridan biridir. Tarixiy inshootlar ansambliga **Chilustun** va **Ko‘k gumbaz** jome masjidlari, qadimiy **Eshon Sudur hammomi**, **Nur qal’asi**, buloq va quduqlar kiradi. Mutaxassislarning tadqiqotlariga ko‘ra buloq suvi tarkibida Mendeleev davriy jadvalidagi **15 ta** mikroelementlardan jumladan oltin, kumush, yod, brom mavjud ekan. Buloqdan sekundiga 420 litr suv chiqadi. Chashmaning yuqori qismida **Shayx Abu Hasan Nuriy** qabri va **40 ustunlik 16 metrlik** gumbazga ega **Chilustun jome** masjidi joylashgan. Chashma majmuasida yana bir me’moriy yodgorlik “**Panjvaqta**”- **Ko‘k gumbaz** masjididir. Masjid **XVI asrda Abdullaxon II davrida qurilgan**. Mutaxassislarning aniqlashicha masjidning asli nimrang, oq, moviy rang va qora rangga ishlangan havorang va oq mozaikalar bilan bezatilgan. Majmua tarikibiy qismlaridan yana biri bu hammondir. Hammom **XX asrda** Buxorodan kelgan mohir ustalar tomonidan qurilgan. Hammom 12 xonadan iborat bo‘lib barcha ichki devorlari **abraziv** tosh bloklari bilan qoplangan. Ushbu obyekt 2016-yil davlat buydjeti tomonidan qayta restavratsiya qilinib foydalanishga topshirilgan.

**Chashma majmuasi  
(Nurota tumani)**



## **“Imom Hasan imom Husayn”ziyoratgohi (Nurota tumani)**

**“Imom Hasan imom Husayn”ziyoratgohi** Navoiy viloyati Nurota yo‘lining 45-kilometrida Dehibaland qishlog‘i joylashgan. Bu qishloqda uchta ramziy qabr bor. Kiraverishda o‘ng tomonida **“Imom Hasan imom Husayn” ziyoratgohi** bor. Bu yerda hazrati Alining suyukli farzanlari **Imom Hasan** va **Imom Husaynlarning** ramziy qabrlari bor. Bu qabrlar taxminan **XIX asrning** oxirlarida barpo etilgan. Bu maskanga ham ko‘plab mahalliy sayyohlar tashrif buyurishadi. Ikki qabrning o‘rtasida masjid bor. Masjidda bitta ustun bo‘lib, u marmar toshdan yasalgan. Mazkur san‘at asarining muallifi g‘ozg‘onlik mashhur usta muhandis **Abdurayim Turdiyev**.

Ushbu qishloqda shuningdek, Dehibaland qo‘rg‘oni mavjud bo‘lib uning qurilishi eramizdan oldingi yillarga to‘g‘ri keladi. Nur qal’asi bilan zamondosh Dehibaland qal’asi hududda joylashgan boshqa qal’alar singari qishloq mudofaasi uchun qurilgan. Poydevori toshdan g‘ishtlari tuproqdan yasalgan. Qadimda shaharchaga yov hujum qilganda qo‘rg‘on tepasidagi askarlar olov yoqishib yoki tutun chiqarishib shaharcha aholisi xavfdan boxabar qilishgan va uzoqda joylashgan boshqa qal’alarga ham xabar berishgan. Dehibaland **qishlog‘ida 3 ta chashma bor**. Bu qal’a ham mudofaa ham suvga egalik qilish uchun qurilgan. Hozirgi kunda qal’aning mudofaa devorlari qolmagan. Faqatgina qishloqqa kirish joyidagi asosiy qismi qolgan xolos. Maydoni **1700 kv.m kv.mga** teng

**“Imom Hasan imom Husayn”ziyoratgohi  
(Nurota tumani)**



## **Shohimardon masjidi (G'ozg'on shahri)**

Shohimardon tarixiy yodgorligi G'ozg'on shahridagi eng qadimiy tarixiy maskanlaridan biri bo'lib, Shayxon mahallasida joylashgan. Uning asli (qadimgi tuzilishi) mashhur olim arxitektor Ahmadjon Muxtorov va o'zbek arxitektori, professor Dodo Nozilovning aytishicha, **XV-XVI asrlarga** taalluqlidir. Bu arxitektura ansamblining qimmatliligi shundaki, bu erda Muhammad alayhissalomning amakivachchasi va kuyovi **Hazrati Ali ibn Abu Tolibning** maqbarasi ham mavjud. O'rta Osiyo arxitekturasining noyob namunalaridan biri bo'lgan bu nodir bino marmar toshdan qurilgan. Bu mahobatli va mo'jizakor maskan **1904-1908 yillarda** Buxoro amiri **Abdulahadxon** va uning o'g'li **amir Said Olimxon** va onasi tomonidan qayta ta'mirlangan. Masjidni ta'mirlashda g'ozg'onlik usta sangtaroshlar usta va muhandis Abdurahim Turdiev, usta Umar, usta Rustam, usta Safar, usta Hayitmurod, usta Bobomurodlar marmarga sayqal berib, uni bezaganlar. Masjid ta'miriga asosan Abdurahim Turdiev boshchilik qilgan.



**Shohimardon masjidi  
(G'ozg'on shahri)**



## **Mirzachorbog‘ xonqarorgohi (Karmana tumani)**

Buxoroning so‘nggi amiri Sayid Olimxonning otasi **Sayid Abdulahadxon 1894-yildan** vafotiga qadar amirlikni Karmanadan turib boshqargani haqida ma'lumotlar bor. Shu davrda u Karmana atrofida Charmgarchorbog‘, Gulchorbog‘, Bog‘i olchin, Jarchorbog‘ kabi bir nechta chorbog‘lar qurdirgan. Shulardan bugungacha faqat bittasi saqlanib qolgan. Bu – Karmana tumanining Ko‘hnaqo‘rg‘on mahallasida, Zarafshon daryosiga yaqin hududda joylashgan Mirzachorbog‘.

Mazkur obida Sayid Abdulahadxonning yozgi qarorgohi hisoblangan. **1900-1905-yillarda barpo etilgan**, betakror me'moriy uslubga ega ushbu saroy nafaqat tarixiyliigi, balki naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi san'atining o‘sha davrga xos namunalari aks etgani bilan qimmatlidir.

Mirzachorbog‘ning qurilishida me'mor **Abdurahim Turdimurod o‘g‘li G‘azg‘oniy** bosh-qosh bo‘lgan; o‘sha davrning nomdor ganchkor ustasi **Shirin Murodov** ham ishtirok etgan.

Saroy **1942–1943 yillarda polyak askarlari uchun kazarma qilib berilgan**. So‘ngra qishloq xo‘jaligi uchun foydalanishgan, jumladan, **pillachilik idorasi bo‘lgan**

Ma'lumot uchun, Amir Abdulahadxon 1857 yil 26 martda Karmanada tug‘ilgan. U 1885-yil 4-noyabrda rasman Buxoro taxtiga o‘tirgan. **1894-yildan** umrining oxirigacha Karmanada turib amirlikni boshqaradi. 1910-yil 53 yoshida vafot etadi.

**Mirzachorbog' xonqarorgohi  
(Karmana tumani)**



## **Jaraquduq “Tosh o‘rmoni” (Uchquduq tumani)**

Uchquduq tumani **Mingbuloq ovulidan 30 kilometr uzoqlikda** joylashgan “Jaraquduq” (o‘zbek tilida “jira” – “jilg‘a” ma’nosini bildiradi) darasidagi bundan **95-100 million yil avval mavjud bo‘lgan** “Tosh o‘rmon” deb ataluvchi noyob geologik, paleontologik, tarixiy va tabiiy obyekt dunyo olimlarini hamon o‘ziga jalb qilmoqda.

**O‘ttiz million gektar maydonni** egallagan **Qizilqum** kengliklari o‘rnida bundan bir necha million yillar avval **Tetis okeani** mavjlanib turgan degan taxminlar mavjud. Negaki, hozir ham Mingbuloq ovuli atrofida tosh qotgan chig‘anoqlar, akula tishlari va suyaklari, hatto o‘rdakburun dinozavrning toshga aylangan suyaklarini uchratish mumkin. Haqiqatdan ham Jaraquduq darasi va uning atrofida bo‘lgan kishi tarixiy tabiiy manzarani – tosh qotgan chig‘anoqlar, akula tishlari va suyaklari, daraxt tanalari, hattoki, **o‘rdak burun dinozavrning toshga aylangan boldir suyaklarini ham ko‘rish mumkin.** Bularning barchasi Qizilqum hududi qachonlardir okeanning bir bo‘lagi bo‘lgan degan taxminga mos. Qolaversa, **“Boxantau”** darasidagi qoyatoshlarga bitilgan rasmlar, **“Jaraquduq” darasidagi toshga aylangan daraxtlar,** tosh qotgan o‘rdakburun dinozavrlari boldir suyaklari, akula tishlari ham moziydan sado berib turibdi.

Jaraquduq darasi- ochiq osmon ostidagi noyob **paleontologik** muzey bo‘lib hisoblanadi.

**Jaraqduq “Tosh o‘rmoni”  
(Uchquduq tumani)**





*O‘zbekiston hududidagi madaniy meros obyektlarini  
YuNESKO(UNESCO) merosi ro‘yxatiga kiritish milliy  
qadriyatlarimizni jahon jamoatchiligiga targ‘ib  
qilishda juda muhim  
Sh.M.Mirziyoyev*